

## OIVning inson salomatligiga ta'siri

✘ OIV muammosi jamiyat, millat ravnaqiga jiddiy putur yetkazuvchi bo'lib, hozirgi dunyo davlatlarini tashvishga solib kelmoqda. Dunyoda millionlab insonlar hayotdan bevaqt ko'z yummoqda. Bu jirkanch kasallik bilan kasallanganlarning tuzalishi juda ham qiyin. Ushbu kasallikni yoshlarga, ya'ni o'sib kelayotgan talaba yoshlarimiz sog'ligiga ta'siri yuzasidan tushuncha berish uchun Toshkent shahar SPID markazi shifokori D.M.Ermatova "Yer resurslarini boshqarish" fakultetiga tashrif buyurdi.

U o'z ma'ruzasi bilan talaba yoshlarga OIV infeksiyasi profilaktikasi to'g'risida hamda giyohvandlik va uning salbiy oqibatlarini haqida daliliy misollar keltirib, talabalarga to'liq tushunarli darajada videoroliklar orqali ma'lumotlar berishdi. Tadbir so'ngida talabalar tomonidan berilgan savollarga mutaxassislar tushunarli va ogohlikka da'vat etgan holda javob berdilar.

**YERB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**